


Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari

Ko'pchilik, terminlarni tushunish bo'yicha biroz qiynalishadi, lekin aynan terminlarni bilish, qo'yilgan vazifalarni yechishda yoki paydo bo'lgan xatoliklarni bartaraf etishda juda kerak bo'ladi. Misol uchun, biror muammo paydo bo'lsa, biz darhol Google'ni yordamga chaqiramiz, agar Google qidiruv tizimiga terminlar orqali so'rov bersangiz, muammo yechish qiyinchilik tug'dirmaydi, agar terminlarsiz oddiy so'zlar bilan qidirishni amalga oshirsangiz, muammoni yechishga ancha vaqt ketib qoladi. Bu maqolada ma'lumotlar bazasiga oid juda kerakli va ko'pchilik(!) adashtiradigan ikki termini tushuntirishga harakat qilaman: Ma'lumotlar bazasi va Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT).



Ma'lumotlar bazasi bu — tartiblangan ma'lumotlarni saqlovchi va qayta ishlovchi axborot modeli hisoblanadi. Soddaroq qilib aytganda, bir hil turdagi axborotlarni o'zida saqlovchi va berilgan so'rovlar orqali ularni taqdim etuvchi model. Misol uchun, kitoblar javoni, bu ma'lumotlar bazasi hisoblanadi, ya'ni bir xil turdagi (kitoblarni) ob'yektlarni o'zida saqlaydi, yoki bo'lmasa telefon raqamlar yozilgan kitobcha, bu yerda ism, telefon raqam kabi bir xil tipdagi ma'lumotlar saqlanadi, bu ham ma'lumotlar bazasi.



Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari tushunchasi va ularning asosiy turlari

Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi — bu ma'lumotlar bazasini hosil qiluvchi, ma'lumotlarni qayta ishlovchi va qidiruvchi tizim hisoblanadi. Qisqa qilib aytganda, MBBT barcha jarayonlarni amalga oshiradi. Ma'lumotlar bazasi faqat ma'lumotlarni saqlaydi, qolgan barcha ishlarni MBBT bajaradi.

Ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlar, SQL so'rov tillari orqali boshqariladi, bu tilda MBBT'ga so'rov beriladi, bu so'rov u yerda qayta ishlanib, natija olish uchun ma'lumotlar bazasiga murojaat qiladi, u yerdan so'rovga mos ma'lumotni olib, so'rovga javob beradi:

Malumotlar bazasi va malumotlar bazasini boshqarish tizimlari.

Insonning kundalik mehnat faoliyati tashqi muhit to`g`risidagi axborotlarni qabul qilish va to`plash, turli masalalarni yechish uchun zarur bo`lgan ma'lumotlarni aniqlash, qayta ishlash kabi amallarni bajarish bilan bog`liq bo`ladi. Shu sababli, ham yuqoridagi amallar majmuasi, ularni tatbiq etish usullarini vositalari axborot tizimlarini (AT) yaratish uchun asos bo`lib xizmat qiladixborot tizimlarining asosiy maqsadi foydalanuvchilarni tegishli sohaga taaluqli bo`lgan axborot bilan ta'minlashiga qaratilgan. EHMlarning yaratilishi natijasida avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini (AAT) hosil qilish imkoniyatlari paydo bo`ldi.

teradata.



Amazon RDS



ORACLE®

DATABASE



Microsoft®
SQL Server®



MySQL®



snowflake



PostgreSQL

SAP S/4 HANA



**E'tiboringiz uchun
rahmat!!!**